

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son S/8

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ)	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ.....	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	68-93
08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI	101-109
<i>Xaytboeva Nigora Bakmatatovna</i> TЎQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIШ BЎYIЧA ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERNI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODEL I	120-132
<i>Махмудов Турсунпулат Давронович</i> ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА "АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ХАРАКАТИ" МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАХЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	159-164
09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
<i>Саидова Камола Усканбаевна</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ	165-173
<i>Omonturdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI	174-179
<i>Ochilova Guzаль Араловна</i> ЮКСАК МАЪНАВИЯТ-МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУХИМ ОМИЛИ.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQRUVCHI OMILLAR.....	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK G'OYALARI	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtiyorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ	244-251
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA).....	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIK LARNING KOMMUNIKATIV TA`SIRI XUSUSIDA	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятловна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY	353-358
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ	359-365
<i>Mamataliyev To'liqin Xushmamat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI	366-378
13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ	397-406
<i>Ashurova Sitara Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида)	413-421
<i>Xatirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ	436-442

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO
SIFATIDA 443-448

09.00.00–Фалсафа фанлари

Xudoyberdiyeva Anorabonu Hayotovna
Navoiy davlat konchilik
va texnologiyalar universiteti dotsenti
anoraxudoyberdiyeva@gmail.com

DINIY MANBALARDA IJTIMOYIY HAMKORLIK G'OYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy hamkorlik fenomenining nazariy tahlili, bugungi kunda ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarbliki nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etilgan bo'lib, jamiyat barcha a'zolarining, ijtimoiy guruhlarning umumiy maqsad yo'lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifodalaydigan tushuncha ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy hamkorlik masalalari islom dinining muqaddas manbalarida inson kamoloti, adolat, ilm egallash, tenglik, fikr va e'tiqod erkinligi, bir-biriga ko'maklashish kabi o'oyalar mujassamlashganligi misollar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy hamkorlik, islom, ijtimoiy sheriklik, ilm, adolat, tenglik, do'stlik, manfaat, fikr, inson.

Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna
Navoi State University Of Mining
And Technologies, Associate Professor

IDEAS OF SOCIAL COOPERATION IN RELIGIOUS SOURCES

Abstract. In this article, from a theoretical and methodological point of view, a theoretical analysis of the phenomenon of social cooperation that is currently relevant to the social sciences is given, it is substantiated that this concept expresses the mutual solidarity of all members of society, social groups conducting joint activities to achieve a common goal. Also, issues of social cooperation are covered by the example of such ideas as human perfection, justice, gaining knowledge, equality, freedom of thought and belief, and help each other, embodied in the holy sources of Islam.

Key words: social cooperation, Islam, social partnership, science, justice, equality, friendship, interest, opinion, person.

Худойбердиева Анорабону Хаётовна
Навоийский государственный
горно-технологический университет, доцент

ИДЕИ СОЦИАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В РЕЛИГИОЗНЫХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация. В данной статье приводится с теоретико-методологической точки зрения теоретический анализ актуального перед социальными науками в настоящее время феномена социального сотрудничества, обосновывается, что это понятие выражает взаимную солидарность всех членов общества, социальных групп, ведущих совместную деятельность для достижения общей цели. Также, вопросы общественного сотрудничества освещаются на примере воплощенных в священных источниках ислама таких идей как человеческое совершенство, справедливость, обретение знаний, равенство, свобода мысли и убеждений, помощь друг другу.

Ключевые слова: социальное сотрудничество, ислам, социальное партнерство, наука, справедливость, равенство, дружба, интерес, мнение, человек.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N29>

Kirish

Ijtimoiy hamkorlik masalasini nazariy o'rganishni chuqurlashtirish va bu borada erishilayotgan ilmiy natijalarning amaliy tadbqiqini yo'lga qo'yish jamiyatlarda tinch va osuda hayotni mustahkamlashning hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy hamkorlik muammolarini o'rganish ijtimoiy fikrning shakllanishi tarixi davomida insoniyatni qiziqtirgan va qadimgi davrlarga borib taqaladi. Umuman olganda, ijtimoiy hamkorlik fenomenining nazariy tahlili bugungi kunda ijtimoiy fanlar oldida turgan dolzarb masaladir, chunki mazkur tushuncha har qanday jamiyatda boshqaruvni samarali amalga oshirish yoki bozor munosabatlarini tartibga solishning negizi bo'lib, nazariy-metodologik jihatdan kam tadqiq etilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Insoniyat tarixida jamiyatlar rivojlanishida turli nizolar, kelishmovchiliklar yuz bergan. Ularni bartaraf etish yo'lidagi sa'y- harakatlar va izlanishlar o'z mazmun mohiyatiga ko'ra, ijtimoiy hamkorlik masalalari bilan bog'liq bo'lgan. Ijtimoiy nizolar, ularning insonlararo munosabatlarda kelib chiqishi, sabab oqibatlarini to'g'risidagi qarashlar qadimdan bugungi kunga qadar olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Qadimgi yunon faylasufi Platon insoniyat siyosiy-huquqiy fikrlari tarixida birinchilardan bo'lib davlat bilan erkin fuqarolar o'rtasida shartnomaviy munosabatlar bo'lishi lozimligi haqidagi masalani ko'targan mutafakkirdir. Platonning o'ziga xos qarashlariga muvofiq, fuqaro va davlatning shartnomaviy aloqalari, xususan, Vatan manfaatini ifodalovchi qonunlar ota va onadan ham yuksaklikka qo'yilgan; xuddi ana shu qonunlar fuqarolar uchun oliy maqomga ega ota-ona, tarbiyachi va hokimdir.

Markaziy Osiyoga VII asrning boshlaridan kirib kelgan islom dini va ta'limotining bosh o'oyasini inson va uning baxt-saodati tashkil etadi. Islom dinining muqaddas manbalarida jamiyat a'zolarining tengligi, hokimiyatning xalq manfaati yo'lida faoliyat ko'rsatishi, davlat boshqaruvida xalq ommasi fikrining inobatga olinishi, o'zini-o'zi boshqarish masalalari o'z ifodasini tongan.

Islom ta'limotiga ko'ra, inson eng afzal va sharafl mavjudotdir. Jamiyatda barqarorlik, farovonlik, fuqarolar o'rtasida tenglik, hamkorlik tinchlik va totuvlikning ta'minlanishi adolat o'oyalarining tantanasiga bog'liqdir. Shuning uchun islom ta'limotida adolat va adolatparvarlikka mezon qilib olingan.

Qur'oni karim va hadisi sharifda jamiyatda insonlarning bir-biriga munosabati haqida ko'plab qaydlar mavjud. "Biz sizlarni mukarram qilib yaratdik.. Bir-biringizga do'st, birodar qilib yaratdik", - deyiladi Qur'oni karim oyatlarida. Hadislarda qator diniy tushunchalar, qoidalar, tartiblar, islomning inson va uning ma'naviyati uchun ahamiyati, ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri, jamiyatdagi roli kabi masalalar keng aks ettirilgan. Shu bilan birga, Imom Buxoriy o'z asarini va ta'limotida dinning axloqiy tomonlari va ta'sirini rivojlantirishga harakat qiladi. Uning musulmon dunyosida mashhur bo'lgan "Al- jome' as-sahih" asarida to'plangan hadislarning asosiy mazmuni, islom dinida, Muhammad payo'ambarning kundalik faoliyatida axloqiy masalalarning nihoyatda muhim rol o'ynaganini isbotlaydi. Unda axloqning asosiy jihatlari-insonparvarlik, tenglik, insoniylik, do'stlik, hamkorlik, o'zaro yordam, sadoqat,

mehribonlik, vijdonlilik, rahmdillik, poklik kabi xislatlar ota-ona, yor-birodar, qo'ni-qo'shni, bolalarga mol-mulkka munosabat misollarida namoyon etiladi. Bir so'z bilan aytganda, Imom Buxoriy merosi musulmon mamlakatlarida islom dunyoqarashi va axloqi, insonparvarlikning keng tarqalishida katta ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, islom ta'limotida inson kamoloti, adolat, ilm egallash, tenglik, fikr va e'tiqod erkinligi, bir-biriga ko'maklashish kabi o'oyalar mujassamlashgan.

Muhokama va natijalar

Jamiyatdagi ijtimoiy nizolarni bartaraf etish, hamkorlikda yashash o'oyalari Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy kabi allomalarning qarashlarida rivojlantirilgan.

Ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy munosabatlarning maxsus shakli sifatida, qator konsepsiyalar, nazariyalarda «umumiy tinchlikka asoslangan davlat», «ijtimoiy hamkorlik davlati», «industrial va postindustrial jamiyat» kabi o'oyalarning ilgari surilishi bilan o'zaro bog'liq ravishda olib qaraladi. Bunga ko'ra, yollanma ishchilar, mulk egalari va davlat ijtimoiy hamkorlikning subyektlari hisoblanadi. Shunga muvofiq ravishda, ushbu subyektlarning manfaatlarini ifoda etuvchi institutlar (tashkilotlar) sifatida kasaba uyushmalari, ish beruvchilar uyushmalari, hukumat, shuningdek, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari chiqadi. Bunda, davlat va hokimiyat strukturalarining o'rni va ahamiyati benihoya muhimligini ta'kidlash joiz. Zero, davlat bu jarayonda yirik ish beruvchi – tadbirkor sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy hamkorlik – bu, ijtimoiy mehnat sohasida ishchilar, ish beruvchilar (tadbirkorlar), davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari manfaatlarining muvofiqligi va muhofazasini o'zaro shartnomaga intilish, konsensusga erishish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning muhim yo'nalishlari bo'yicha yagona pozitsiyani ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning sivilizatsiyalashgan shaklidir. Shu ma'noda, ijtimoiy hamkorlik jamiyat barcha a'zolarining, ijtimoiy guruhlarning umumiy maqsad yo'lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifodalaydigan tushuncha. Shuning uchun ham ijtimoiy hamkorlik jamiyatda tinchlik va barqarorlik, yuksak taraqqiyotni ta'minlashning muhim omilidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tadqiqotimiz uchun «ijtimoiy hamkorlik» tushunchasining tahlili amalga oshirilgan ilmiy ishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu ilmiy ishlar mualliflari ushbu kategoriyani ta'riflovchi ikki nazariy yondashuvlar, ya'ni «tred-yunioncha yondashuv»[2] yoki «tarmoqlararo ijtimoiy hamkorlik»[3] konsepsiyalaridan birining tarafdori hisoblanadi.

Birinchi yondashuv doirasida biznes, davlat va kasaba uyushmalari o'rtasida ijtimoiy va iqtisodiy siyosat borasidagi munosabatlar va qarorlarni muvofiqlashtirish zaruriyati haqidagi tasavvur ustuvordir. Ikkinchi yondashuvga ko'ra, ijtimoiy hamkorlikning mohiyati har qanday jamiyatdagi uch sektor (davlat, tijorat va notijorat sektorlari) vakillarining mavjud qonunchilikka tayangan holda ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan muammolarni hal etishdagi konstruktiv o'zaro ta'sirlashuvidan iboratdir.

Ushbu yondashuv va qarashlarning tahlili, ijtimoiy hamkorlik mohiyatiga doir masalalarning ko'p hollarda bir yoqlama talqin qilinishi va asosan, u davlat, tijorat hamda nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro konstruktiv munosabatlarga doir hodisa sifatida olib qaralishi haqidagi xulosani chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, turli

tashkilotlar o'rtasidagi sherikchilik aloqalarining o'rnatilishi, korporatsiyalardagi ichki hamkorlik munosabatlari ham aksariyat hollarda ijtimoiy hamkorlik deb atalishini ta'kidlash mumkin. Albatta, bunday yondashuv tushunchaning mazmunini torayishiga olib keladi. Chunki, jamiyat serqirra voqea va hodisalarning murakkab birikishidan iborat yaxlitlik sifatida nafaqat, yuqorida ta'kidlangan uch bg'g'inning o'zaro munosabati, balki uni tashkil etuvchi ko'plab boshqa jabhalar va omillarning o'zaro ta'sir, taqozo va munosabatlari hosilasidir.

Faylasuf A.Malinkin nuqtai nazariga ko'ra, «ijtimoiy hamkorlik – jamiyatdagi guruhlar va sinflar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning tinch, nokonfrontatsion vositasiga asos bo'luvchi mafkura va amaliyotdir».[4] Ushbu ta'rif o'zining nisbatan umumlashgan xususiyati bilan e'tiborga molik. Zero, unda ijtimoiy hamkorlik konkret ijtimoiy institut va birliklar bilan bog'lab qo'yilmagan.

Umuman olganda, xorijlik faylasuflar yondashuvlarining tahlili ijtimoiy hamkorlik – muammolarga daxldorlik hamda hamjihatlilik his-tuyg'usiga asoslangan ijtimoiy jarayon sifatida davlat, ish beruvchi hamda yollanib ishlovchilardan iborat uch sektorning ongli ravishda, ya'ni, u yoki bu muammoning yechilishidan o'z manfaatdorligini chuqur his qilgan holdagi o'zaro manfaatli munosabati ekanini ta'kidlash imkonini beradi.

Shuningdek, ijtimoiy hamkorlikning vujudga kelishi va samarali amalga oshishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ijtimoiy muammolar;
- hamkorlar manfaatlari;
- hamkorlikning huquqiy asoslanganligi;
- hamkorlarning imkoniyat hamda resurslarining darajasi va sifati;
- o'zaro ta'sir va o'zaro nazorat qoidalari;
- ijtimoiy hamkorlik qirralarini yoritishga imkon beruvchi axborot maydoni;
- hamkorlikka asos bo'ladigan loyihalar;
- ijtimoiy hamkorlik jarayonidagi doimiylik va barqarorlik;
- ijtimoiy muammolarni hal etishda innovatsion yo'llarining mavjudligi.

Ijtimoiy hamkorlikning bosh sababi – bu ijtimoiy munosabatlarda yuzaga kelgan muammodir. Biroq, bu turdagi muammolarning subyektlar tomonidan aniqlanish va anglanish darajasi turlicha bo'ladi. Shuning uchun, bu jarayonda tomonlar manfaatini muvofiqlashtirish murakkab muammolardan biridir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi muhim vazifalar bajarilishi zarur:

- hamkorlik subyektlari tomonidan mavjud muammoning ahamiyati teran anglab yetilganligi;
- hamkorlik qiluvchi tomonlarning manfaatlarini aniqlab olish;
- faoliyatning maqsad va vazifalarini birgalikda shakllantirish;
- jamiyatdagi o'z o'rni va statusini anglab olinishi, muammoni hal etish uchun o'z imkoniyatlarini baholay olish;
- hamkorlik jarayonida amal qiladigan aniq qoidalarning ishlab chiqilishi;
- hamkorlar tomonidan ularning imkoniyat va vositalarining birlashishi ijobiy natija berishini anglab yetilishi.

Ijtimoiy hamkorlik aniq muammoni birgalikda his etgan va uni hal etishga kirishgan tomonlarning teng huquqlilikka asoslangan, uzoq muddatli va o'zaro manfaatli munosabatlaridir. Shuning uchun, bu yo'nalishdagi munosabatlarni ko'p hollarda rahbariyat

tomonidan tartibga solinadigan, qisqa muddat davom etadigan muammolarni hal etish yo'lidagi oddiy o'zaro ta'sirlashuv yoki kooperasiyadan farqlash lozim.

O'arblik mutaxassis L. Olsen o'zining «Partnership For Social Welfare» nomli kitobida ijtimoiy hamkorlik haqida shunday yozadi: «Hamkorlik kooperasiyadan kengroq mazmunga ega. U vazifalar va mas'uliyatni taqsimlanishi muhiti sifatida chiqadigan, hamkorlar tomonidan qabul qilinadigan loyihaviy madaniyatning rivojlanishini anglatadi. Shuningdek, ijtimoiy hamkorlik tomonlarning bir-birini jalb etishi orqali yangi qarorlarni izlash jarayoni bo'lib, shartnomaviy majburiyatlar va hamkorlar tomonidan rivojlantirib boriladigan sifatni kuchaytirish tizimi hamdir».[5]

Shu o'rinda, yana bir muhim masalaga qisqacha to'xtalib o'tamiz, bugungi kunda ommaviy axborot vositalari vakillari, ba'zan tadqiqotchilar tomonidan ham "ijtimoiy hamkorlik" va "ijtimoiy sheriklik" atamaları bir xil mazmundagi, o'zaro teng tushunchalar sifatida qo'llaniladi. Bu ikki tushuncha bir-birisiz mavjud bo'lolmaydigan, o'zaro bog'liq, turli vazndagi tushunchalar hisoblanadi. Bu tushunchalar nisbatini mazmun va shakl, umumiylik va xususiylik, butun va qism nisbatiga o'xshatish mumkin. "Ijtimoiy hamkorlik" tushunchasi mazmun, umumiylik va butun xususiyatiga ega bo'lsa, "ijtimoiy sheriklik" unga nisbatan shakl, xususiylik va qism hisoblanadi. "Ijtimoiy hamkorlik" umumiy faoliyat yuritishning universal uslubi bo'lib, u ijtimoiy sheriklik orqali amalga oshadi. "Ijtimoiy sheriklik" jamiyat hayotidagi bir soha bo'lib, ijtimoiy hamkorlik rivoji uchun sharoit yaratib beradi.

Ijtimoiy sheriklik – ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirishning muhim mexanizmi, davlat organlari, ish beruvchilar (biznes tuzilmalar), ishchi xodimlar (kasaba uyushmalar) va jamoat tashkilotlarining o'zaro manfaatdorlik asosida birgalikdagi faoliyatidir.

Ijtimoiy hamkorlikning ijtimoiy sheriklikka nisbatan keng tushuncha ekanligi o'zbek tiliga oid lo'atlarda ham aks etgan. Xususan, "O'zbek tilining izohli lo'ati" ning 5 jildida hamkorlik so'ziga "faoliyatda hamkor bo'lish, birlashish, ishni teng bajarish, shuningdek o'zaro bog'liqlikda faoliyat yuritish", deb izoh berilgan bo'lsa,[6] uning 4-jildida sheriklik so'ziga "Sherik bo'lish, sherik (birgalik) holat" deb ta'rif berilgan. Ushbu sahifada xalq orasida ko'p ishlatiladigan "shirikchilik" atamasiga ham "Biror ish faoliyatida bir-biri bilan sheriklik qilish, sherik bo'lib ish tutish", degan ta'rif berilgan.[7]

"Ijtimoiy sheriklik" va "ijtimoiy ishtirok" tushunchalarini ham o'zaro farqlash zarur.

Ijtimoiy ishtirok-alohida fuqarolar, ijtimoiy subyektlar va tashkilotlarning muayyan sohalarda belgilangan mezon va qoidalarga rioya qilgan holda biror faoliyatni birgalikda amalga oshirishda qatnashishi. Ijtimoiy ishtirok – ijtimoiy hamkorlikning dastlabki bosqichidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy hamkorlik – murosa falsafasi bo'lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligini ta'minlaydi. Natijada jamiyatda tinchlik-totuvlik va barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolati vujudga keladi. Albatta, bunday darajaga erishish oson emas. Qarashlar rang-barangligi, fikrlar xilma-xilligi, so'z va fikrlar erkinligi jamiyatni soo'lomlashtiruvchi va mustahkamlovchi o'ta muhim omillar hisoblanadi.

Agar fikrlari va harakatlari jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaydigan bo'lsa, mamlakatni bunday kishilardan tozalash kerak. Ming yillar mobaynida milliy davlatchiligimiz tarixiy tajribalarida sinovdan o'tgan bunday xulosalar hamon o'z qimmatini yo'qotmagan. Ular bugungi va ertangi kunimiz uchun ham albatta xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Платон. Собрание сочинений в 4 т./ ред А.Ф.Лосева и др.; авт. Вступит. Статьи А.Ф. Лосев; примеч. А.А. Тахо- Годи; пер. С древнегреч.-Т.1.- Москва: Мысль, 1990. 107 б
2. Веселова Н.Г. Социальное управление и элементы его культуры / Н.Г.Веселова. – М.: ИТК «Дашков и К», 2002. –С.105-125; Павлова Т.В. Паттерны развития институтов управления индустриальными отношениями в условиях глобализации/ Т.В.Павлова //Полис. –2004. –№6. –С.29-34; Черныш М.Ф. Противоречия становления социального партнерства/М.Ф.Черныш//Социс. – 2004. –№6. –С.45-51.
3. Межсекторное стратегическое партнерство / Под. ред. Ю.Н.Лапыгина. – Владимир: 2005. – С.23; Дилигенский Г.Г. Власть, бизнес и гражданское общество / Г.Г.Дилигенский // ОНС. – 2002. – №6. – С.21-25; Зудин А.Ю. Власть и гражданское общество / А.Ю.Зудин //ОНС. – 2002. – №6. –С.34-36.
4. Малинкин А. Социальное партнерство в Германии - <http://www.strana-oz.ru>.
5. Olsen L. Partnership For Social Welfare. – N.Y., 1968. P.24
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. 5- ж. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008.500б.
7. Xudoyberdiyeva, A. (2021). AVESTO FALSAFIY TA'LIMOTIDA MULKIY MUNOSABATLAR VA IJTIMOIIY NAMKORLIK ALOQALARINING TAVSIFI. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5/8 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).